

**Soliq siyosati taktikalarini soliq yukini optimallashtirish jihatidan ishlab
chiqish yo'nalishlari**

PhD Nasimov Ravshanjon Azimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti


Annotasiya. Maqolada soliq yuki ko'rsatkichining ahamiyati, O'zbekistonda iqtisodiy xatti-harakatlar va natijalarni shakllantirishda soliq siyosatining ahamiyatini ko'rsatadi. Ular yuqori soliq stavkalari, murakkab qoidalar va past soliq axloqi tadbirkorlik faolligi va rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lishi jihatdan o'rganilgan hamda ilmiy xulosa va takliflar shakllantirilib, soliq yukini hisoblash yo'nalishlari nazarda tutilgan. Biroq, soliq to'lovchilar davlat tovarlari va xizmatlarini moliyalashtirish uchun soliq tushumlaridan qanday foydalanish bo'yicha o'z afzalliklarini bildirganda, yuqori soliq yukini qabul qilishga tayyor.

Kalit so'zlar: soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq yuki, soliq stavkalari, byudjeti xarajatlari, resurs soliqlari, yer solig'i, mahalliy soliqlar, soliq, byudjet, soliq imtiyozlari.

Kirish. Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida soliq tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishi bo'lgan adolatli soliqqa tortishni o'rnatishga qaratilgan soliq siyosatining mazmunini soliq yukini muntazam kamaytirib borish evaziga makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni yana kuchaytirishga qaratilgandir. "Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi, xususan: umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi" ni kamaytirishga keng ustuvorlik qaratib kelinmoqda.

Bizga ma'lumki soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini optimal taqsimlash soliq siyosatining eng murakkab va nozik jihatlaridan biri bo'lib, bunda

soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini qaror toptirish asosiy muammo hisoblanadi. Bular bir tomondan davlatning funksiyalarini optimal tarzda bajarishi uchun kerak bo'ladigan moliyaviy mablag'larni jalb qilish imkoniyatini beruvchi soliqqa oid siyosatni ishlab chiqish va yuritish, boshqa tomondan soliq to'lovchilarni adolatli soliqqa tortish asnosida ularning iqtisodiy faoliyatini cheklab qo'ymaslikni ta'minlaydigan mo'tadil soliq siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Masalaning birinchisi, bir qarashda oddiyroq tuyulsada (masalan, soliq stavkalarini oshirish, imtiyozlarni kamaytirish va shu kabi) ammo, bunday yondashuv ma'lum muddatdan so'ng o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi aniq (Laffer nazariyasi). Aynan mana shu muammoning uyg'unlashga yechim sifatida respublikamizda soliq yukini optimallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni qisqacha izohlaydigan bo'lsak, respublikamizning Yangi O'zbekiston sharoitidagi iqtisodiy siyosatning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan - soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va soliq solish tizimini soddalashtirish asosida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish qilib belgilab olingan edi. Bunda adolatli, shaffof, uzoqqa mo'ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to'lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko'rsatmoqda. Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 80 dan ortiq turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Biroq, bu kabi islohotlar amalga oshirilishiga qaramasdan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikamiz soliq tizimida optimal soliq yukini belgilash (o'rnatish) va ta'minlash borasida ayrim ilmiy-amaliy xarakterga ega bo'lgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Ularni vizual shaklda quyidagicha izohlash mumkin. (1-rasm).



1-rasm. Soliq tizimida optimal soliq yukini belgilash (o'rnatish) va ta'minlash muammolari¹

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tamoyillariga ko'ra, yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan soliq tizimida optimal soliq yukini belgilash (o'rnatish) va ta'minlash muammolarining ilmiy mohiyatini birmuncha izohlashga harakat qilamiz. Boshqa ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, davlat budjeti daromadlarini rejalashtirishda amaldagi soliq qonunchiligi doirasida joriy qilingan soliqlar va soliqsiz to'lovlar bo'yicha o'rnatilgan soliq stavkalari, soliq obyektlari va imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq tushumlarining bashorat ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi, biroq, bu bashorat ko'rsatkichlari soliq to'lovchilarning real soliq to'lash imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak bo'ladi.

Ilmiy tahlillar ko'rsatishicha davlat budjeti daromadlarini rejalashtirishdan keyingi ya'ni, haqiqiy ko'rsatkichlar aniqlanganda esa, belgilangan soliq tushumlari reja miqdori soliq to'lovchining amaldagi soliq salohiyatiga mos kelmay qoladi, bu esa soliq yukining optimal taqsimlanmaganligi yoki o'rnatilmaganligidan dalolat

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.
www.tadqiqotlar.uz

beradiki, bu bugungi kundagi soliq yukini optimalligini ta'minlashdagi dolzarb muammolardan biri sifatida mavjud bo'lmoqda.

Soliq yuki hajmiga nisbatan adolatli qarashning yetarli emasligi soliq yukini adolatli baholashga to'sqinlik qilayotgan muammolardan biridir. Buni biz QQS misolida tushuntirishga harakat qilamiz. Soliq yukini aksariyat iqtisodchilar ishlab chiqarish sohasidan davlatning markazlashtirilgan pul fondlari (jumladan, davlat budjetiga) qancha mablag' majburiy tartibda jalb qilinganligini ifodalab, uni miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan izohlab borishadi. Miqdor ko'rsatkichi qancha summada va sifat ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulotning necha foizi jalb qilinganligini bildiradi. Jahon xo'jaligi holatini tahlil qilish, undagi jarayonlarni ifodalovchi iqtisodiy indikatorlarni tavsiya qiluvchi yirik moliyaviy institutlarning tavsiyasiga ko'ra, umumiy soliq yuki 30-35 foizdan oshmaslik moliyaviy jihatdan normal holat deb baholanadi.

Yangi Soliq konsepsiyasiga ko'ra foyda solig'i stavkasining keskin tushirilishi, tadbirkor faqat daromad olsagina to'lanishi belgilanishi, ish haqidan oldinadigan 30 foizgacha daromad solig'i o'rniga yagona 12 foizlik soliq turi kiritilishi va 8 foizlik sug'urta badali umuman bekor qilinishi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari ham 30 foizga pasaytirilishi, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirilishi norasmiy faoliyatni legalizatsiya qilinishiga, norasmiy bandlikni kamaytirishga, qolaversa tadbirkorlarning halol ishlashi, ko'proq ish o'rinlari yaratishiga xizmat qilib, ushbu yengilliklar Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish "yashirin" iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'li bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda soliq tizimidagi dolzarb muammolardan biri bu fuqarolar tomonidan soliqlarni o'z vaqtida to'lashdan manfaatdorlik tuyg'usini oshirish va shu orqali soliqlarni to'lashdan qochmasdan o'zlarining faol fuqarolik pozitsiyasini chinakkam namoyon etishiga erishish sanaladi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishligini, insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash tizimini qo'llash

orqali barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etishdan iboratdir. Yangi Soliq konsepsiyasining qabul qilinishga qadar soliq madaniyati masalasiga faqatgina unga ma'naviy qadriyat sifatida qaralib, unga erishishning iqtisodiy vositalariga deyarli e'tibor berilmadi.

Soliq to'lovchilarga faqatgina soliq to'lash lozimligini uqtirish, soliq to'lamaganlik uchun moliyaviy jazo choralarini ko'rish bilan uning darajasini oshirib bo'lmasligini guvohi bo'ldik. Biz bu yerda bir narsani unutmadi, har qaysi olingan soliq to'lovchida o'ziga xos "men"i bo'ladi, ya'ni bu tabiiy-ijtimoiy va psixologik haqiqat, ammo, ushbu "men" jamiyat manfaatlari bilan kesishuvi bo'lgandagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Soliq yukining nomutanosibligi, soliqlarni undiruvchi organlar tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan munosabatning yetarli emasligi, eng muhimi ba'zi soliq turlari, masalan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi va sug'urta badallarining haddan ziyod yuqoriligi kabi iqtisodiy vositalar soliq madaniyatining subyektiv ravishda oshmasligiga xizmat qilib keldi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq yuki tushunchasi umumiy tushuncha sifatida soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlarning qiymatini ifodalaydi, ammo uni tushuntirishda uning tarmoqlar, hududlar, korxonalar, aholi darajasiga qarab, quyi darajadagi soliq yukining xususiyatlarini bilishga intilish orqali umumiy soliq yukining mazmunini yanada chuqurroq anglanish va shu tartibda quyi darajadagi soliqqa oid jarayonlardan uning umumiy xulosalar chiqarishga intilish masalasini yanada oydinlashtiradi.

Адабиётлар/Литература/Референсе:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: G'афур G'улом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. Насимов Р.А. "Солиқ юкени оптималлаштириш йўллари" (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2024.